Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2025 Vol. 1 No. M 3-4
LINGUISTICS
DOI: 10.36078/987656146

Dildora Madirimova

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
E-mail: dilya0210adil23@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/009-0009-4622-7634

HIS-HAYAJON GAPLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqola his-hayajon gaplarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qiladi. Maqolaning maqsadi his-hayajon gaplarda emotsiya bildirish, voqea-hodisalarga baho berish, obrazli, ekspressiv, intensiv munosabat ko‘rsatish hususiyatiga ega. Maqolaning vazifalari – tadqiqotda his-hayajon gaplarning illokutsion kuchi, perlokutsion ta’siri, konteksga bog‘liqligi hamda kommunikativ vazifalarni yoritadi. Tadqiqot davomida his-hayajon gaplarning so‘zlovchining niyati, tinglovchining reaksiyasi hamda kontekst bilan uzviy bog‘liqligini anglatadi. Ruxiy holatlarni til va nutqda aks ettirish uchun xizmat qiluvchi maxsus emotsional lisoniy birliklar, gramamatik kategoriyalar shakllangani, ularning har ikkala til tizimida his-hayajon gaplarni yaxlit sintaktik qurulma ko‘rinishida hosil qiladi. Tadqiqotning metodlari shuni ko‘rsadaki, his-hayajon gaplarning pragmatik jihatdan ekspressiv nutq aktlari sifatida namayon bo‘lib, muloqotning samaradorligini oshiradi. Jahon xalqlarining til – tafakkur –hissiyot ketma-ketligi asosida emosional leksikasi shakllantiriladi, shuningdek, ob’ektiv haqiqatni tushunish, idrok etish va tushuntirishga qaratilgan his-hayajon gaplar yaratiladi. Natijalarga ko‘ra, bunday gaplar emosionallik bilan birga baholash, obrazlilik, ekspressivlik va intensivlikka ham xizmat qiladi. Til tizimning inson his-tuyg‘ularini ifodalash va unga ta‘sir qilish elementlarini qamrab oluvchi his-hayajon gaplar ijtimoiy-psixologik ta‘sirlanish va emotsional leksika orqali hayotiy voqea hodisalarga, insonlar harakteri va turli ruhiy holatlariga baho beradi. Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, jahon tilshunosligida ijtimoiy-psixologik ta‘sirlanish manbasi bo‘la olishini mazkur tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: His-hayajon gaplar, pragmatika, nutq akti, illokutiya, perlokutsiya, kontekst.

Dildora Madirimova

Tashkent university of social innovations
E-mail: dilya0210adil23@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-4622-7634

PRAGMATIC FEATURES OF EMOTIONAL-EXPRESSIVE

Abstract. This article analyzes the pragmatic features of emotional statements. The purpose of the article is to express emotions in emotional statements, evaluate events, and show a figurative, expressive, and intensive attitude. Objectives of the article – the study highlights the illocutionary force, perlocutionary effect, context dependence, and communicative functions of emotional statements. The study shows that emotional statements are inextricably linked with the speaker's intention, the listener's reaction, and the context. Special emotional linguistic units and grammatical categories that serve to reflect mental states in language and speech have been formed, which in both language systems form emotional statements as a coherent syntactic structure. The methods of the study show that emotional statements are pragmatically manifested as expressive speech acts, which increase the effectiveness of communication. The emotional lexicon of the peoples of the world is

formed on the basis of the language – thought – emotion sequence, as well as emotional statements aimed at understanding, perceiving and explaining objective reality. According to the results, such statements, along with emotionality, also serve as an assessment, imagery, expressiveness and intensity. Emotional statements, which encompass the elements of the language system for expressing and influencing human feelings, evaluate life events, human characters and various mental states through socio-psychological impact and emotional lexicon. In conclusion, it should be said that these studies are of particular importance in world linguistics as a source of socio-psychological impact.

Keywords: Emotional sentences, pragmatics, speech act, illocution, perlocution, context.

Дилдора Мадиримова

Ташкентский университет социальных инноваций
E-mail: dilya0210adil23@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-4622-7634

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЭКСПРЕССИВНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

Аннотация. В данной статье анализируются прагматические особенности эмоциональных высказываний. Цель статьи – выразить эмоции в эмоциональных высказываниях, оценить события и показать образное, экспрессивное и интенсивное отношение. Задачами статьи являются выявление иллокутивной значимости, перлокутивного эффекта, контекстной обусловленности и коммуникативных функций эмоциональных высказываний. Исследование показывает, что эмоциональные высказывания неразрывно связаны с намерением говорящего, реакцией слушателя и контекстом. Сформировались специальные эмоциональные лингвистические единицы и грамматические категории, служащие для отражения психических состояний в языке и речи, которые в обеих языковых системах формируют эмоциональные высказывания как связную синтаксическую структуру. Методы исследования показывают, что эмоциональные высказывания прагматически проявляются как экспрессивные речевые акты, повышающие эффективность коммуникации. Эмоциональный лексикон народов мира формируется на основе последовательности язык – мышление – чувство, а также эмоциональные высказывания, направленные на понимание, восприятие и объяснение объективной реальности. Согласно результатам, подобные высказывания, наряду с эмоциональностью, также служат оценочным инструментом, образностью, выразительностью и интенсивностью. Эмоциональные высказывания, включающие элементы языковой системы для выражения и воздействия на человеческие чувства, оценивают жизненные события, человеческие характеры и различные психические состояния посредством социально-психологического воздействия и эмоционального лексикона. В заключение следует отметить, что эти исследования имеют особое значение в мировой лингвистике как источник социально-психологического воздействия.

Ключевые слова: эмоциональные предложения, прагматика, речевой акт, иллокуция, перлокуция, контекст.

KIRISH

Maqsadli faoliyat bilan bir qatorda, his-tuyg‘u natijasida hosil bo‘ladigan, kishilar o‘rtasidagi muloqot jarayonida voqelikka nisbatan faol hissiy munosabat bildirishga qaratilgan his-hayajon gaplar o‘ziga xos lisoniy tuzilma sifatida, insonning voqelikni idrok etish, his qilish qobiliyati va tajribasining shakllanishini ta’minlaydi hamda ijtimoiy ongga ta’sir o‘tkazadi. Darhaqiqat, his-hayajon gaplarda tafakkur va ruhiyat uzviylashuvining tildagi in’ikosini kuzatish mumkin. Inson nutqi nafaqat til, qolaversa, ruhiy omillar asosida ham qo‘llaniladi. His-hayajon gaplar ba’zan xursandlik, shodlanish, zavqlanish,

huzurlanish, tantana, qoniqish, lazzatlanish, ishonch, qoyil qolish, erkallash, taraddud, hayrat, hayajon, taajjub, vahima, qo‘rqish, afsuslanish, gazab, nafrat, ishonmaslik, shubha, kesatish, qochirim, ta’na, mazax, mensimaslik, nopisandlik, baland kelish, qo‘rqitish, yoqtirmaslik, keskin va qat’iy ogohlantirish, achitib gapirish kabi ijobiy yoki salbiy hissiyotlar va ruhiy kechinmalarga mos keladigan emotsional munosabatni kuchli ohangda ifodalaydi. Shu sababli, his-hayajon gaplar darak, so‘roq, buyruq gaplardan farq qiladi. Darak, so‘roq, buyruq gaplarga undov, his-hayajon intonatsiyasi (ohangi) qo‘shilsa, emotsional gap hosil bo‘ladi. Dunyo tilshunosligida turli ruhiy holatlar, his-kechinma va sezgilarni tilda aks ettirish bilan bog‘liq vosita va usullarni kognitiv-pragmatik yo‘nalishda aniqlashga katta e’tibor qilinmoqda. Shu asosda ingliz va o‘zbek tillarida ham his-hayajon gaplarning emotsionallik yoki emotivlik, ekspressivlik, intensivlik, funksional-semantik, stilistik, denotativ va konnotativ vositalari, usul va turlari, kategoriyalari, ularning o‘zaro sinkretlashuv holatlari, kognitiv-pragmatik xususiyatlarini o‘rganib, o‘ziga xos grammatik, semantik-stilistik belgilarini yoritish, axloqiy, intellektual, estetik tabiatiga ko‘ra universal va differensial qirralari, ijodkorlar asarlarida aks etish tamoyillarini ko‘rsatish dolzarb muammolardan biridir. Har bir til nafaqat axborot yetkazish, balki hissiy holatini ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Nutq jarayonida so‘zlovchi faqat axborot bermaydi, balki unga bo‘lgan munosabatini ham bildiradi. Ularning lingvistik tahlili sintaksis, stilistika, pragmatika va psixolingvistika nuqtai nazaridan dolzarbdir. Pragmatika tilshunoslikda gaplarning real muloqot vaziyatida qanday maqsadda va qanday ta’sir ko‘rsatish uchun qo‘llanilishini o‘rgatadi. His-hayajon gaplar esa aynan so‘zlovchining emotsional holatini ochib beradi, tinglovchida muayyan hissiy javobni yuzaga keltirishi bilan ajralib turadi. His-hayajon gaplar – bu gaplovchining kuchli hissiy reaksiyasi (hayrat, afsus, sevinch, g‘azab, xavotir, va boshqalar)ni ifodalovchi gaplardir. His-hayajon gaplarni shakillantiruvchi omillar va ularning strukturasiga xos belgilar tarzida nomlangan. Nutqiy gaplar ifoda maqsadiga ko‘ra qanday gap bo‘lishidan qat’iy nazar emotsionallikka ega bo‘lmagan jihatidan his-hayajon gaplarning turlariga bo‘linadi [Qurbonova, 2004] Ular *undov gap* [Abdurahmonova, 1987] *vokatov gap* [Abdullayev, 1987] *emotsional gap* [G‘ulomov, 1987] deb ham yuritiladi. Odatda undovlar, so‘roq ohanggi yoki kuchli intonatsiya bilan yuzaga chiqadi. His-hayajon gaplar strukturasiga xos belgilarni farqlashda, ularning inson his-kechinmalarini qanday yo‘sin va qanday maqsadda ifodalashi va o‘zlashtirilishi ham muhimdir.

Masalan:

Hayrat: “*Voy, qanday chiroyli!*”

Qo‘rquv: “*Voy, men juda ham qo‘rqib ketdim!*”

Afsus: “*Eh, kech bo‘ldiku!*”

Quvonch: “*Yashasin, g‘alaba bizniki!*”

Bu his-hayajon gaplarning muloqot jarayonida ingliz tilida qanday emotsialar bilan ishlatilishini ko‘ramiz;

Masalan:

Surprise: *“Wow, how beautiful it is!”*

Fear: *“Oh no, I got really scared!”*

Regret: *“Ah, it’s already too late!”*

Joy: *“Hooray, the victory is ours!”*

His-hayajon gaplar tilshunoslikda sintaktik birlik sifatida o‘rganiladi, biroq ular fonetik, leksik, morfologik va pragmatikani ham chuqur talab qiladi. Bu gaplar shuningdek, nutqning dramatik, emotsional va ekspressiv qatlamini tashkil qiladi. Fonetik xususiyatlari. His-hayajon gaplarda intonatsiya asosiy ro‘lni tashkil etadi. Gaplovchining hissiy holati aynan ohang, pauza, urg‘u, orqali ifodalanadi. Masalan: *“Voy-bo‘!”* – baland ohangli, hayratni ifodalasa, *“Eh-he…”* – cho‘zilgan intonatsiya orqali afsus bildiriladi. Bunday gaplarda ko‘pincha pauzalar, cho‘zilgan yokida tez aytilgan bo‘g‘inlar, ta’kidlangan so‘zlar ishtirok etadi. Bu ularning fonetik jihatdan kuchli ifoda vositasi bo‘lishiga olib keladi. His-hayajon gaplarda emotsiya qo‘shimcha hodisa sifatida namoyon bo‘ladi, chunki tilning boshqa hodisalari qatori emotsional gaplarning nutqda asosiy vazifasi ham kommunikativ, aloqa-aralashuv, axborot, fikr uzatish vositasi ekanligi bois ularda emotsiyalarni, affektlarni ifodalash yordamchi holat bo‘lib ko‘rinadi. Lekin emotsiyani tilidan boshqa nolinguistik vositalar (yuz ko‘rinishini o‘zgartirish, qichqirish, baqirish, kulish, yig‘lash, har xil imo-ishoralar qilish) orqali ham ifodalash mumkin. Shunday

bo‘lsa-da, ko‘pincha his-hayajon gaplarni hosil qilishda emotivlar (his-hayajon undovlari) ishlatiladi:

“Oh my dear, life is so short and love is so transitory”

“Oh, azizam, umr biram qisqa, muhabbat shunchalar o‘tkir va o‘tkinchi”

Leksik xususiyatlar. Leksik haqida qisqacha ma’lumot beradigan bo‘lsak, leksika o‘zi tilshunoslikning barcha so‘zlar, til lug‘at tarkibini va iboralar yig‘indisini ya‘ni u tildagi so‘zlarning ma’nosi, kelib chiqishi, so‘z boyligini o‘rganadi. His-hayajon gaplarda leksik xususiyatlar bu gaplarda his-tuyg‘uni bevosita ifodalovchi so‘zlar va emotsional ko‘rinishga ega leksik birliklarning faol ishlatish bilan qo‘llaniladi. Leksik jihatdan his-hayajon gaplarni quyidagilar bilan ko‘rib chiqamiz:

Masalan:

Modal so‘zlar: *“Voy “ , “ Eh”, “Axir”, “Yo tavba”, “Xudoga shukur”*

Taqlid so‘zlar: *“Taq-taq”, “Qars-qars”, ‘Vay-vay!”*

Kuchaytiruvchi qo‘shimchalar: *“-ku” , “-a”, “-da”, “-mi”*

Leksik jihatlarni endi ingliz tilida qanday emotsiyalar bilan qo‘llanishini ko‘rib chiqamiz.

Masalan:

Modal words: *“Wow/oh, oh/ah, after all/you know/actually, oh my God/goodness me/, thanks God/thank goodness”*

Onomatopoeic words: *“Knock-knock, tap-tap, clap-clap”*

Intensifying particles: *“You know, oh/hey, really/indeed”*

Morfologik xususiyatlar. Morfologik jihatdan bu gaplarda gapiruvchining munosabatini kuchaytiruvchi shakllar qo‘llaniladi. Shuningdek, ta’kidlovchi yuklamalar *(“axir, “baribir”)*, istak va buyruq ifodalaydigan fe’l shakllari *(bo‘lsin, ketsin, kelmang)* ham ko‘p uchrab turadi. Tilshunoslikda, morfologiya so‘zlar, ular qanday tuzilishi va shu tildagi boshqa so‘zlar bilan bog‘liqligi haqidagi fan. U so‘zlarning tuzilishi va qismlarini misol uchun o‘zak, so‘z o‘zagi, old qo‘shimcha va so‘z oxiridagi qo‘shimchalarni o‘rganadi. Shuningdek, morfologiya so‘z turkumlari, intonatsiya, urg‘u va kontekstning so‘zlarning talaffuzi va ma’nosini o‘zgartirish yo‘llarini ham o‘rganadi. Morfologiya so‘zlarning qo‘llanilishiga ko‘ra tillarni tasniflaydigan morfologik sinflarga ajratish tizimidan shuningdek, so‘zlar va ularning til lug‘atini qanday tashkil etishini o‘rganuvchi leksikologiyadan farq qiladi.

His-hayajon gaplar va pragmatika. His-hayajon gaplar – inson hissiyotlarini nutqiy shaklda ifodalashning asosiy vositalaridan biridir. Ular fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik jihatdan o‘ziga xos bo‘lib, tilning emotsional qatlamini tashkil etadi. Ushbu gaplarning chuqur o‘rganilishi nafaqat tilning strukturaviy tomonini, balki inson psixologiyasining til orqali ifodalanishini anglashga xizmat qiladi. Ular tildagi jonlilik, tabiiylik va ekspressivlikni kuchaytiruvchi muhim vositadir. Matnni sotsiokulturniy kontekstda kommunikativ o‘zaro ta’sir vositasi sifatida o‘rganish matn pragmatikasini matnning asosiy parametrlaridan biri sifatida ilgari suradi. Ushbu muammoni muhokama qilishdan avval lingvopragmatikaning ayrim asosiy farazlarini aniqlab olish zarur.

Lingvopragmatika kommunikativ lingvistikaning yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, umumiy ma’noda u tilning inson faoliyati doirasidagi omillarini, ayniqsa tilning psixologik, ijtimoiy va madaniy jihatlarda faoliyat ko‘rsatishini o‘rganadigan fan sifatida ta’riflanadi. Lingvopragmatikaga doir turli xil ta’riflar mavjud. Barcha qarashlarni umumlashtirgan holda, quyidagi jihatlar va yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

belgi va undan foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlar [Morris, 1978; 8];

kontekstga bog‘liqlik, tilning qo‘llanishi, tilning kontekstda namoyon bo‘lishi [Susov, 1985; 4];

nutqning adresatga ta’siri, samarali va muvaffaqiyatli kommunikatsiyaga ta’sir etuvchi omillar [Kiseleva, 1978; 8];

nutqiy muloqotning interpretativ jihatlari [Arutyunova, 1989; 4];

tilning maqsadga yo‘naltirilgan kommunikativ faoliyat quroli sifatida talqin etilishi [Grays, 1985; 8];

o‘zaro tushunish va til vositalaridan o‘rinli foydalanish muammosi [Deyk, 1989; 4].

Adabiy nutqning umumiy pragmatik xususiyati o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, aniq vaziyatlarda pragmatik xususiyatlarning turlari turlicha bo‘ladi va ularning ta’siri ham turlicha. Pragmatik xususiyat matnning tashkiliy prinspidir. U til vositalarini tanlashni, matnning strukturaviy va semantik xususiyatlarini oldindan belgilaydi. Shuning uchun pragmatik tahlil pragmatik xususiyatlarni aniq yoki bilvosita tanib bo‘ladigan til birliklarini topishga qaratilgan. Pragmatik niyatlarning turiga qarab, uning tildan foydalanish shakllari har xil bo‘ladi. Ta’sir va idrokning samaradorligi ham pragmatik niyatlarning turiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, pragmatik xususiyatlarni farqlash, ularning turlarini ierarxik tasniflash juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib tuyuladi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu jihatlarning barchasi hech qanday tarzda mos kelmaydi. Ular bir-birini to‘ldiruvchi turli sohalarda lingvopragmatik tadqiqotlarni taqdim etadilar. Lingvistik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, lingvopragmatika keng ko‘lamli muammolarni qamrab oladi, ammo matn lingvistikasi uchun ulardan eng dolzarblari quyidagilar:

nutq strategiyalari va nutq ta’siri;

pragmatik niyatlar va ularning turlari;

matnli muloqotning maqsadga muvofiqligi va samaradorligi.

Ushbu muammolarni tahlil qilishni davom ettirishdan oldin, matnga pragmatik yondashuv “*diskurs*” atamasini talab qilishini ta’kidlash kerak. Diskurs tushunchasi allaqachon muhokama qilingan. Bu yerda ta’kidlash kerakki, bu atama ancha noaniq va hali ham muhokama qilinmoqda. Ko‘plab qarashlar, yondashuvlar, tendentsiyalar mavjud. Diskurs ta’riflarining ko‘pligiga qaramay, uning vaziyatga asoslangan talqini g‘oyasi kuchli ilmiy qo‘llab-quvvatlanadi. Bu shuni anglatadiki, diskurs ijtimoiy, psixologik, madaniy muloqot sharoitlarining murakkab kombinatsiyasida tahlil qilinishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, [Karasik, 2004; 84] aytganidek, lingvopragmatika doirasida. Demak, diskurs pragmatikasi vaziyatni talqin qilish masalasini ko‘taradi, bu esa o‘z navbatida kommunikativ-pragmatik vaziyat tushunchasini kiritadi. Kommunikativ-pragmatik vaziyat muloqotning tashqi sharoitlari va holatlari majmuasi sifatida tushuniladi. [Aznaurova, 1988; 38]ning fikriga ko‘ra, kommunikativ-pragmatik vaziyat zanjirli savollar bilan ifodalanishi mumkin: kim – nima – qayerda – qachon – qanday – nima uchun – kimga. Adabiy diskursdagi kommunikativ-pragmatik vaziyatning eng muhim parametrlari quyidagilardir:

kommunikativ aktning holatlari va o‘rni;

muloqotning predmeti va maqsadi;

kommunikantlarning ijtimoiy, etnik, individual xususiyatlari;

kommunikantlar o‘rtasidagi rol va shaxsiy munosabatlar.

Diskurs tahlili jarayonida lingvistik shaxsiyat bilan bir qatorda maqsadli omillarning rolini ham alohida ta’kidlash kerak.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotlar jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanadi:

Deskrivtik metod – his-hayajon gaplarning pragmatik belgilari o‘rganildi.

Nutq aktlari tahlili – gaplarning illuksion va perluksion jihatlari o‘rganildi.

Konteksual tahlili – gap ma‘nosining vaziyatga bog‘liqligini o‘rgandi.

Kognitiv – pragmatik yondashuv – emotsional mazmunning idrok va aqil bilan bog‘liqligini aniqladi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, material sifatida his-hayajon gaplar badiiy adabiyotlar, og‘zaki nutq, badiiy asarlar, teatr va kino hamda publitsistikada ham keng qo‘llaniladi.

His-hayajon gaplarning illokutsion xususiyati. His-hayajon gaplar ko‘pincha ekspressiv nutq aktlari namoyon bo‘ladi, ya‘ni ular orqali insonlar o‘z hissiy holatini ifodalaydi.

1-jadval

His-hayajon gaplarning illukutsion ko‘rinishi

Illokutsiya turi	Pragmatik ma’nosi	Misol
Hayrat	Kutilmagan holatga reaksiya	Voy, bu nima?
Quvonch	Ijobiy emotsiya	Nihoyat maqsadimga erishdim!
Ogohlantirish	Xavfdan qochish!	Qancha ogohlantirdim-a!
Achinish	Hamdardlik	Eh, bechora attang!

Jadvalda har bir illokutsiya turi muayyan pragmatik ma’no bilan bog‘lanib, so‘zlovchining hissiy munosabati nutqiy vaziyat doirasida misollar orqali ochib berilgan. Bu tasnif emosional gaplarning kommunikativ vazifalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Perlokutsion ta’sir. Bu nutqda his-hayajon gaplar tinglovchiga kuchli psixologik his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatadi. Kuchaytiruvchi birliklar orqali so‘zlovchining hissiy holatini ifodalaydi. Tinglovchi interaktiv nutqni eshitgach, o‘z ichki ruhiy holatini sezadi. Ularning perlokutsion natijalar quyidagi jadvalda ko‘rib chiqamiz.

2-jadval

His –hayajon gaplarning perlokutsion ko‘rinishi.

So‘zlovchi hissiyoti	Tinglovchi reaksiyasi	Misol
Qo‘rquv	Tezkor harakat	Qoching yong‘in! eshik va oynalarni oching!
Afsus	Hissiy hamdardlik	Endi juda ham kech…!
G‘azab	Himoyalash	Eee nima qilyapsan?! Qo‘lingni ol!
Norozilik	Tezkor reaksiya	Axir, bunday qilishing mumkin emas!

His-hayajon gaplarning kommunikativ va kognitiv bog‘liqligi. Endi matnning qoniqarli ta’rifiga faqat kommunikativ va kognitiv yondashuvlar orqali erishish mumkinligi tan olingan. Matnga kognitiv asossiz kommunikativ yondashuv yetarli emas. Bu tilshunoslikning tildan foydalanishni insonning kognitiv faoliyati bilan bog‘laydigan antroposentrik pargmatikaga o‘tishi bilan bog‘liq. Biz har qanday til hodisasini tavsiflashda uning ikkita funksiyasi kognitiv va kommunikativ hisobga olinishi kerak, degan kontseptsiyasiga amal qilamiz [Kubryakova, 2004; 80]. Natijada, matnni o‘z ichiga olgan til hodisalarini yetarlicha tushuntirishga faqat bilish va muloqot chorrahasiga erishish mumkin. Ma’lumki, kognitiv lingvistika, lingvistik tanlovlar va aqliy jarayonlar, inson tajribasi va uning natijalari bilim o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Kognitiv lingvistika tilni bilim qatlamlarini ifodalash, saqlash va uzatishning kognitiv mexanizmi sifatida ko‘rib chiqadi. Kognitiv tilshunoslikdagi ba’zi natijalarni umumlashtirib, kognitiv tadqiqotlar asoslangan bir qator umumiy tamoyillarni bayon qilishimiz mumkin.

Umumiy tamoillarini quyidagilar bilan ko‘rib chiqamiz bulardan;

til aqliy hodisa, kognitiv mexanizm sifatida qaraladi;

til ijodiy, tasavvur qobiliyatlari bilan ajralib turadi;

til nafaqat til shakllarining tashqi tizimi, balki bilimlarni ifodalashning ichki tizimidir;

Kognitiv tilshunoslikda e‘tibor til naqshlari va aqliy tuzilmalar o‘rtasidagi munosabatlarga, dunyo axborotini va uning tilda namoyon bo‘lishini kontseptualizatsiya qilish va tasniflash jarayonlariga, bilim tuzilmalari va ularning og‘zaki ifodalanishiga qaratilgan.

Ekspressiv nutq aktlari. Nutq aktlari nazariyasiga ko‘ra ekspressiv nutq aktlari so‘zlovchining ruhiy va psixologik holatini va ichki kechinmalarini ifodalaydi. Bunda gapning asosiy vazifasi axborot berish emas, balki hissiy munosabatni namayon qiladi.

Masalan:

Voy, juda ajoyib! – quvonch/ go‘zal manzarani ko‘rgan paytida

Eh, juda ayanchli… – achinish/ omadi kelmaganida

Nihoyat! – yengillik/ imtihon natijalari a’lo chiqqanida

Bu gaplar real holatni o‘zgartirmaydi, ammo so‘zlovchining ichki kechinmasi va ruhiy holatini ko‘rsatib beradi.

MUHOKAMA

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, his-hayajon gaplar muloqotning emotsional va psixologik kuchini belgilaydi. Ular oddiy habar berish bilan qolmay, tinglovchiga faol ta’sir o‘tkaza oladi. Og‘zaki nutqda intonatsiya, mimika va harakatlar bilan birgalikda pragmatik kuchi yanada ortadi. His-hayajon gaplar undovlardan farqli ravishda to‘liq sintaktik birlik bo‘lib, kontekst asosida murakkab pragmatik ma‘noni ifodalaydi. Ular nutqning ta’sirchanligini oshiradi va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, his-hayajon gaplar ko‘pincha axborot yetkazishdan ko‘ra, tinglovchiga ta‘sir o‘tkazish, hissiy munosabat uyg‘otish yoki kommunikativ vaziyatni baholash vazifasini bajaradi. Masalan, undov ohangi, emotsional leksika va intonatsiya orqali so‘zlovchi o‘z holatini bevosita namoyon etadi va shu orqali nutqning pragmatik samaradorligi oshadi. Bu holat ularning illokutsion kuchini kuchaytirib, tinglovchining reaksiya bildirishiga imkon yaratadi.

Shuningdek, his-hayajon gaplarning pragmatik talqinida ijtimoiy omillar ham muhim o‘rin tutadi. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy maqom, yaqinlik darajasi hamda madaniy kontekst ushbu gaplarning qabul qilinishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Bir xil emotsional gap turli vaziyatlarda turlicha pragmatik ma’no kasb etishi mumkin. Bu esa his-hayajon gaplarning ko‘pqatlamli semantik-pragmatik kuchga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, his-hayajon gaplar diskurs doirasida muhim kommunikativ vosita bo‘lib, ular matnning ekspressivligini oshiradi, muallif pozitsiyasini aniqlashtiradi va tinglovchi yoki o‘quvchi bilan psixologik yaqinlikni ta‘minlaydi. Ayniqsa, badiiy va og‘zaki nutqda ularning pragmatik xususiyati yanada faol namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, his-hayajon gaplarning pragmatik xususiyatlarini o‘rganish nutqning kommunikativ mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu jihatlar tilshunoslikda pragmatika, diskurs tahlili hamda kognitiv lingvistika sohalari uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

MUNOZARA

Mazkur tadqiqot doirasida his-hayajon gaplarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu gap turlari faqatgina emotsional holatni ifodalash bilan cheklanmay, balki kommunikativ ta’sir ko‘rsatish, baholash, adresatga yo‘naltirilgan munosabat bildirish kabi murakkab pragmatik vazifalarni ham bajaradi. His-hayajon gaplar nutq jarayonida so‘zlovchining ichki kechinmalari, subyektiv munosabati va pragmatik intensionini bevosita namoyon etuvchi vosita sifatida maydonga chiqadi. Pragmatik nuqtayi nazardan, his-hayajon gaplarning asosiy funksiyasi adresatning psixologik va emotsional holatiga ta’sir qilishdan iborat. Ushbu gaplar orqali so‘zlovchi tinglovchini hayratga solish, qiziqtirish, ishontirish, ta’sirlantirish yoki muayyan baho berishga undaydi. Bu holat his-hayajon gaplarning perlokutiv kuchi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, badiiy diskursda bunday gaplar obrazlilik va ekspressivlikni kuchaytirib, matnning estetik ta’sirchanligini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, his-hayajon gaplarning pragmatik xususiyatlari kontekst, kommunikativ vaziyat va so‘zlovchi niyati bilan chambarchas bog‘liq. Bir xil strukturaviy shakldagi his-hayajon gap turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha pragmatik ma’no kasb etishi mumkin. Masalan, hayratni ifodalovchi gap ba’zan ijobiy emotsiyani, ba’zan esa kinoya yoki norozilikni anglatadi. Bu esa pragmatik ma’noning kontekstga bog‘liqligini tasdiqlaydi. Munozara jarayonida aniqlanganki, his-hayajon gaplarda emotsionallik, ekspressivlik va intensivlik kategoriyalari ko‘pincha sinkretik tarzda namoyon bo‘ladi. Ushbu kategoriyalarning birgalikda qo‘llanishi gapning pragmatik ta’sir kuchini oshiradi. Masalan, kuchaytiruvchi birliklar, undov so‘zlar, intonatsiya va stilistik vositalar yordamida his-hayajon gaplar adresat ongida kuchli psixologik rezonans uyg‘otadi. Shuningdek, his-hayajon gaplarning pragmatik xususiyatlari lingvistik shaxs bilan bevosita bog‘liq ekani kuzatildi. So‘zlovchining ijtimoiy mavqei, madaniy saviyasi, individual dunyoqarashi va milliy mentaliteti ushbu gaplarning tanlanishi va qo‘llanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, his-hayajon gaplar milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi muhim pragmatik birliklar sifatida baholanishi mumkin. Natijalar shuni ham ko‘rsatadiki, kognitiv-pragmatik yondashuv his-hayajon gaplarning mohiyatini yanada chuqurroq ochib berishga imkon yaratadi. Chunki bu yondashuv doirasida his-hayajon gaplar konseptual tafakkur, emotsional tajriba va til vositalarining o‘zaro integratsiyasi sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillarini qiyosiy tahlil qilish jarayonida his-hayajon gaplarning universal va milliy-spetsifik jihatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, his-hayajon gaplar pragmatik jihatdan nutqning eng ta’sirchan birliklaridan biridir. Ular ekspressiv nutq aktlari sifatida so‘zlovchining ichki kechinmasini va ruhiy holatini ifodalaydi va tinglovchida muayyan

hissiy xatti-harakatini hamda amaliy reaksiyasini uyg‘otadi. His-hayajon gaplarning pragmatik xususiyatlarini o‘rganish til, tafakkur, ong va psixologiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq anglashga imkon yaratadi. His-hayajon gaplar lisoniy, intonatsion hamda grammatik vositalar orqali his-hayajon va affektlarni uzatish, yetkazishga qaratilgan lisoniy va nutqiy tuzilma, maxsus sintaktik qurilmalardan biri sifatida idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish kabi faoliyatlarga oid tushuncha va kategoriyalar bilan kengayib boradi. Ularda insonning tafakkur faoliyati, his qilish yoki hiss-tuyg‘ularini ifodalash faoliyati namoyon bo‘ladi. His-hayajon gaplarning vazifasi turli emotsiyalarni ifodalashdan iborat bo‘lib, buning uchun ularning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik belgilari shakllanganligi aniqlashtirildi. Ushbu gaplar hosil bo‘lishida tuzilishiga xos bo‘lgan (inversiya, ellepsis va boshqa shakliy o‘zgarishlar), ma’no ko‘chishlarining (sintaktik polisemiy, omonimiya kabi) turlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-psixologik holatlarni til va nutqda aks ettirishga moslangan maxsus emotsional lisoniy birliklarni, grammatik kategoriya va vositalarni qamrab oluvchi yaxlit lisoniy tuzilma, nutqiy sintaktik struktura sifatida mantiqan obyektiv haqiqatni tushunish, voqea-hodisaga emosional, obrazli, ekspressiv, denotativ, konnotativ, intensiv, gender munosabat ko‘rsatishi jihatidan ijtimoiy-psixologik reaksiya manbai bo‘lib, nutqda pragmatik ta’sir etish vazifasini bajaradi. Emotsiyalarning leksik-semantik kategoriyalash muammosi, ya’ni tuyg‘ularni so‘zning semantik komponentlari, u yoki bu til so‘zlarining semantik guruhlarga taqsimlanishi umumiy til modeli nazariyasidan kelib chiqib, umumiy tilshunoslikning dolzarb muammosini aks ettiradi. Nutqda alohida so‘zning semantikasi butun jumlaning ma’noviy tuzilishi bilan munosabatga kirishadi. Natijada sintagmatik munosabatlar majmuasi sifatida tilning sintaktik vazifasi namoyon bo‘ladi. Tilning nominativ va sintaktik vazifasi lingvistik, tilning pragmatik vazifasi esa ham lisoniy, ham ekstralingvistik tadqiqni talab etadi. Semantika ekspressiv jihatdan belgilangan makrokomponent sifatidagi konnotatsiyaning borliqni nomlash jarayonini aks ettirish mahsuli sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev, A. (1987). O‘zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. Tashkent: Fan. (p. 67).
2. Arutyunova, N.D., & Paducheva, Ye.V. (1985). Istoki, problemy i kategorii pragmatiki. In Novoye v zarubezhnoy lingvistike (Vol. 16). Moscow: Progress. (p. 93).
3. Aznaurova, E.S. (1988). Pragmatika slova. Tashkent: Fan. (p. 83).
4. Deyk, T.A. van. (1989). Yazyk. Poznaniye. Aloqa. Moscow. (p. 83).
5. G‘ulomov, A., & Asqarova, M. (1987). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. Tashkent: O‘qituvchi. (p. 65).
6. Grays, G.P. (1985). Logika i rechevoye obshcheniye. In Novoye v zarubezhnoy lingvistike (Vol. 16, Lingvisticheskaya pragmatika). Moscow: Progress. (p. 82).
7. Kaharova, I.S. (2004). Tarjimada obrazni qayta yaratish san’ati. BuxDU ilmiy axboroti, (2), 37–42.
8. Karasik, V. (2004). Til doirasi: shaxsiyat, tushunchalar, nutq. Moscow: Gnosis. (p. 81).
9. Kiseleva, L.A. (1978). Voprosy rechevogo vozdeystviya. Leningrad. (p. 83).
10. Kubryakova, E.S. (2004). Ob ustanovkakh kognitivnoy nauki i aktual’nykh problemakh kognitivnoy lingvistiki. Izvestiya AN. Seriya literatury i yazyka. (p. 63).
11. Qurbonova, M., Sayfullayeva, R., Boqiyeva, G., & Mengliyev, B. (2004). O‘zbek tilining struktural sintaksisi (O‘quv qo‘llanma). Tashkent. (p. 114).
12. Safarov, Sh.S. (2006). Kognitiv tilshunoslik. Samarqand: Sangzor nashriyoti. (p. 112).
13. Susov, N.P. (1985). Yazykovoye obshcheniye i lingvistika. In Pragmaticheskiye i semanticheskiye aspekty sintaksisa (Sb. nauch. trudov). Kalinin. (p. 84).

REFERENCES

1. Abdullayev, A. (1987). Syntactic method of expressing expressiveness in the Uzbek language. Tashkent: Fan. (p. 67).
2. Arutyunova, N.D., & Paducheva, Ye.V. (1985). Origins, problems, and categories of pragmatics. In New developments in foreign linguistics (Vol. 16). Moscow: Progress. (p. 93).
3. Aznaurova, E.S. (1988). Pragmatics of the word. Tashkent: Fan. (p. 83).
4. Van Dijk, T.A. (1989). Language. Cognition. Communication. Moscow. (p. 83).
5. Gulomov, A., & Askarova, M. (1987). Modern Uzbek literary language. Syntax. Tashkent: O'qituvchi. (p. 65).
6. Grice, G.P. (1985). Logic and verbal communication. In New developments in foreign linguistics (Vol. 16, Linguistic pragmatics). Moscow: Progress. (p. 82).
7. Kakharova, I.S. (2004). The art of recreating imagery in translation. BukhSU Scientific Bulletin, (2), 37–42.
8. Karasik, V. (2004). Language circle: Personality, concepts, discourse. Moscow: Gnosis. (p. 81).
9. Kiseleva, L.A. (1978). Issues of speech influence. Leningrad. (p. 83).
10. Kubryakova, E.S. (2004). On the foundations of cognitive science and current problems of cognitive linguistics. Proceedings of the Academy of Sciences. Series of Literature and Language. (p. 63).
11. Kurbonova, M., Sayfullayeva, R., Bokiyeva, G., & Mengliyev, B. (2004). Structural syntax of the Uzbek language (Textbook). Tashkent. (p. 114).
12. Safarov, Sh.S. (2006). Cognitive linguistics. Samarkand: Sangzor Publishing House. (p. 112).
13. Susov, N.P. (1985). Verbal communication and linguistics. In Pragmatic and semantic aspects of syntax (Collection of scientific papers). Kalinin. (p. 84).